

## XALQ TA'LIM VAZIRLIGI SOVG'ASI TOPSHIRILDI



### XALQ TA'LIM VAZIRLIGI SOVG'ASI TOPSHIRILDI

Xabaringiz bor, o'tgan hafta tumanimizga tashrif buyurgan O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vaziri Saidov Baxtiyor Odilovich bir qator ta'lim muassasalarida bo'lib, ta'lim muassasalari pedagogik jamoasi va o'quvchilari bilan uchrashib, maktablardagi muammo-kamchiliklarni ham o'rgangan edi.

Tashrif chog'ida tumanning 1, 2, 19, 21-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablarida olib borilayotgan ishlarni o'rganish barobarida, maktab o'quvchilarining bilim darajasi ham sinovdan o'tkazilib, 6 nafar maktab o'quvchilariga 6 dona noutbuk sovg'a qilingan edi.

Shuningdek, xalq ta'limi vaziri ko'rsatmasiga asosan 1, 2, 21 va 29-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablariga kompyuter jamlanmalari yetkazib berilishi ta'kidlangan edi.

Kecha tumanimizga xalq ta'limi vazirining sovg'alari - 16 donadan kompyuter jamlanmasi yetib keldi va tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev ishtirokida mazkur zamonaviy dastgohlar nomi zikr etgan maktablar jamoasiga taqdim etildi.

29-sonli Saribozorcha mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan maktabda bo'lib o'tgan tadbirda Respublika Prezidenti tomonidan ta'lim sohasiga berilayotgan e'tibor haqida so'z bordi. Tumanimiz hududlarida qad rostlayotgan va qurib, foydalanishga topshirilgan ta'lim muassasalari ham mazkur e'tibor natijasi ekanligi qayd etildi. Maktab direktori va faol o'quvchilarga kompyuter jamlanmasi topshirildi.

So'x tumani hokimi shuningdek, maktabda olib borilayotgan obodonlashtirish va ta'lim-tarbiya ishlari bilan ham qiziqdi. Direktor Amirjon Temirovning so'zlariga ko'ra, maktab pedagogik jamoasi "yashil makon" umumimilliy loyihagini tatbiq etishda ham faollik ko'rsatishayotir. Maktabda shuningdek, mevali daraxtlar va malina bog'i tashkil etilgan. Tuman hokimi bilan birgalikda maktab hovlisiga terak qalamchalari ekildi.

Bir soat dars jarayonida ishtirok etgan tuman hokimi o'quvchi yoshlar bilim darajasini sinovdan o'tkazdi, ularning qiziqishlari bilan qiziqdi.

---

Eslatib o'tamiz, O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lim vazirining ko'rsatmasiga asosan 1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabiga ham kompyuter jamlanmasi yetkazib berilishi belgilangan.

**So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**

2022-04-11 12:04:25